

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI	10-18
--	-------

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	19-24
---	-------

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ	25-29
--	-------

Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH	30-35
--	-------

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI)	36-41
---	-------

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI	42-46
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	47-54
---	-------

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH	55-61
--	-------

Mamadaliyev Ulug'bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI	62-69
---	-------

Jalilov Arslon Xoshimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH	70-75
--	-------

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI	76-82
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI	83-87
---	-------

Norkulov Ubaydulla Umarovich

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI 88-92

Пулатов Шердор Нематёнович

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ 93-105

Yusupov Murodali Sunnatovich

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI 106-110

Suleymanov Sarvar Sunatullayevich

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI 111-116

Shernazarov Ravshan Avazovich

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI 117-122

Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI..... 123-126

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Matkarimova Salomat Ko'ziyevna

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK 127-133

Tairova Maxfuza Abdusattorovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI 134-139

Rahimova Maftuna

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA 140-143

Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR 144-147

Xursanov Nurislom Iskandarovich

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI 148-154

Umarov Umidjon Akram o'g'li

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI 155-159

Облокулова Шахло Асрор қизи

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ 160-164

Nazarova Lola Maqsadilla qizi

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 165-170

Umarxonova Dilafruz Murotjonovna

“MARDLIK” VA “QO'RQOQLIK” KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI 171-175

Yunusova Ganjina Rustamovna

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI 176-180

Мусаев Файзулло Оманович

АРАБ ДУНЁСИДА “МАСАЛ” ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI	283-289
---	---------

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
--	---------

Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
--	---------

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
--	---------

Маматкулов Камолiddин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
---	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
---	---------

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
--	---------

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
---	---------

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
---	---------

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
--	---------

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
--	---------

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
---	---------

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	376-381
--	---------

09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 30 June 2024**Accepted:** 5 July 2024**Published:** 15 July 2024*Article / Original Paper***TRANSFORMATION OF YOUTH ECONOMIC CULTURE IN MODERN
UZBEKISTAN SOCIETY****Djurayev Lukmon Narzullaevich**Associate Professor, Department of Philosophy and National Idea, Samarkand State University,
Doctor of Philosophy (DSc)

Abstract. In this article, economic culture is effectively highlighted as an integral system in which sustainability depends directly on the culture of production and behavior. The integrative and functional connections of economic culture as a system are highlighted. The issues of behavior, which are one of the functional links, are highlighted, the views and definitions of a number of specialists on this issue are outlined.

Keywords: Empirical research, competitive, integrative, functional, structural, economic behavior, behavior, work, ethics.

**ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY
MADANIYATINING TRANSFORMASIYALASHUVI****Djurayev Lukmon Narzullaevich**Samarqand davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori
(DSc)

Annotasiya. Ushbu maqolada iqtisodiy madaniyat barqarorlikni ta'minlash bevosita ishlab chiqarish madaniyati va xulq-atvorga bog'liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Iqtisodiy madaniyat tizimi sifatida integrativ va funktsional aloqalari yoritiladi. Funktsional aloqalaridan biri bo'lgan xulq-atvor masalari yoritilib bu masalaga bir qancha mutaxassislarining qarashlari, ta'riflari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Empirik tadqiqotlar, raqobotdosh, integrativ, funktsional, struktura, iqtisodiy xulq-atvor, xulq, mehnat, odob-axloq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N12>

Yoshlikni biologik jihatdan davrlashtirish masalasi hamon bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu masala bir qarashda oddiy ko'rinsa-da, aslida nazariy yoki ilmiy tortishuvlardan ko'ra muhimroq ahamiyatga ega. Har bir mamlakat uchun bu masalaning ilmiy-amaliy ahamiyati va yechimi, xususan, yoshlarga beriladigan keng imkoniyatlar, imtiyozlar va kreditlar kabi masalalar aholining aniq hisob-kitoblarini talab qiladi.

Yoshlik davrining chegaralari yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlari hamda rejalarining ko'lamini belgilaydi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish uchun hukumat tomonidan yetarli darajada va uzluksiz ravishda moddiy va moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash choralari ko'rilgan.

Ijtimoiy falsafada “Yoshlik” tushunchasi, mohiyati va uning chegarasi, noyob o'ziga xos xususiyatlari haqida turli-tuman fikrlar, qarashlar va nazariyalar mavjud.

Bu maqsad xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi ga fan, texnika va ta'limda proyektiv tafakkur tarzini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir”[1-14] – deb ta'kidlaydi. Yoshlarning o'sish xususiyati, yoshi, jismoniy va ruhiy yetukligi turli davrlarga xos yosh avlodlarning bir-biriga o'xshashligini aniqlaydi.

Zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar yoshlarni insoniyat jamiyati taraqqiyotidagi alohida o'rni va maqomini, ijtimoiy tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon etadi. Jamiyatdagi iqtisodiy islohotlarda yoshlarning faol ishtiroki innovatsion imkoniyatlar, integratsiya kabi muhim vazifalarni bajarishi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi O'zbekiston jamiyatida yoshlarning o'rni va mavqeyi quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Yoshlar - yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy qatlam.
2. Yoshlar - jamiyatning eng faol, tez harakatli, aqliy va jismoniy jihatdan yetuk qismi.
3. Yoshlar - yangi bilim va kasblarga ega bo'lgan, boshqa guruhlardan ko'ra faolroq ijtimoiy qatlam.
4. Yoshlar - jamiyat boyliklarining merosxo'ri va yangi ijtimoiy munosabatlar yaratuvchisi.
5. Yoshlar - yangiliklar va o'zgarishlarni tez qabul qiluvchi qatlam.

Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan o'ziga xos qatlam bo'lib, bir tomondan tengdoshlari va ijtimoiy guruhlardan ajralib tursa, boshqa tomondan jamiyatning barcha sohalarida o'z o'rnini egallash imkoniyatiga ega.

Globalashuv jarayonida yoshlarning roli va o'rnini baholashda quyidagilarni hisobga olish muhim:

1. Jamiyatdagi yangi o'zgarishlar va avlodlar almashinuvi.
2. Yoshlarning ijtimoiy faolligi.
3. Yoshlarda ijtimoiy mobillik darajasining o'sishi.
4. Yoshlarning ijtimoiy faoliyatdagi yutuqlaridan xabardorlik.

Yoshlar davlatning muhim qismi sifatida jamiyatdagi turli jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning subyekti va obykti sifatidagi rolini o'rganish muhimdir.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti islohotlari davrida fuqarolarning iqtisodiy dunyoqarashi va bilimlarining o'sishi iqtisodiy nazariya faniga ijobiy ta'sir qilsa-da, real hayotdagi tajribalar bilan nazariy bilimlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keldi. Natijada, fuqarolarning iqtisodiy madaniyati nazariy bilimlar va amaliy hayot g'oyalarining muvozanatsiz holatini vujudga keltirdi.

Zamonaviy O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish jarayonidagi iqtisodiy islohotlar natijasida avvalgi iqtisodiy madaniyat yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi:

1. Turli mulkchilik shakllari paydo bo'ldi va xususiy mulk jamiyatda qonuniylashtirildi.
2. Samarali mehnat boylik manbai sifatida tan olindi, boylik esa farovon hayot g'oyasiga aylandi.

3. Teng huquqlilik o'rniga ijtimoiy adolat qadriyatlari ustuvor bo'ldi.

4. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tildi.

Jamiyatda kishilarning umumiy iqtisodiy madaniyati yangi bozor iqtisodiy qadriyatlari tomon bosqichma-bosqich o'zgarib bormoqda. Bu jarayonda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

1. Fuqarolarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish iqtisodiyotning samaradorligiga yo'naltirildi.

2. Ijtimoiy tenglik o'rniga qobiliyat va mehnatga yarasha haq olish tamoyili ustuvor bo'ldi.

3. Davlat boshqaruvi susaytirildi, iqtisodiyotning mo'tadil boshqaruvi joriy etildi.

Zamonaviy yoshlarning iqtisodiy madaniyati transformatsiyasi uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi: 1) iqtisodiy ta'lim orqali olingan bilim, 2) yangi iqtisodiy qadriyatlar, 3) iqtisodiy xulq-atvor. O'zbekistonda yoshlarning iqtisodiy madaniyati transformatsiyasi mustaqillikning dastlabki davridan to hozirgi yangi O'zbekiston sharoitidagi innovatsion iqtisodiy madaniyatga o'tish jarayonigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 5 iyuldagi farmoniga muvofiq, mamlakatimiz yoshlarining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, mikrokreditlar bilan ta'minlash va ularni qo'llab-quvvatlash zarur. "O'zmilliybank" va O'zbekiston yoshlar Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik memorandumiga ko'ra, yoshlarni kichik biznesga jalb qilish, uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va bitiruvchilar bandligini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Bu maqsadlar uchun imtiyozli kreditlar ajratish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlarning jamiyatdagi o'rnini haqida shunday ta'kidlaydi: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [2]. Shu o'rinda O'zbekiston yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashining qo'shma qaroriga asosan tasdiqlangan Nizom ham tadbirkor yoshlarni qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lmoqda. Nizom bo'yicha bank tomonidan yosh tadbirkorlarning startup loyihalarini moliyalashtirish uchun jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag'lar hisobidan kredit ajratiladi. Unda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yosh tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 3 ming hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yosh tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 1 ming baravarigacha miqdorda olti oygacha imtiyozli davr bilan 3 yil muddatgacha kredit ajratilishi belgilab qo'yilgan. Albatta, bu imtiyoz ham yoshlarga qulay imkoniyatdir.

Ayniqsa bugun yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan Prezident farmon va qarorlari, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida davlat qonunlari yoshlarning o'z huquqlaridan foydalanishga shart-sharoit yaratib, o'z bizneslarini erkin tashkil qilish imkoniyatini bermoqda. Bu xususda AQShlik faylasuf, sotsiolog, futurolog Elvin Toffler (1928-2016): "... har qanday iqtisodiyot, mahsulot ishlab chiqarish, daromad topish, umuman hamma narsaga erishish muqarrar ravishda hokimiyatning uch manbai bo'lgan: kuch, boylik va bilimga bog'liq. Kuch qonunga aylanadi. O'z navbatida, kapital va pul endilikda bilimga aylanadi. Mehnat ham o'zgarib, uning ko'rinishi manipulyatsiya qilishga bog'liq bo'lib qoladi. Kapital, pul va ishchi kuchi bir xil yo'nalishda, iqtisodiyotning poydevoridagi inqilobiy o'zgarishlarga qarab

harakat qiladi. Bilim bunday rivojlanishining asosiy manbaiga aylanadi. Natijada, u iqtisodiyotning amaldagi qonunlardan butunlay farq qiladigan yangi qonunlarga muvofiq yashaydigan supersimvolik iqtisodiyotga aylanadi” [3-120],-deb yozgan edi. Demak, biz ilgari surayotgan qonun o'zining hayotiyliги bilan mamlakatimiz iqtisodiyotini kelgusida ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka asoslangan supersimvolik iqtisodiyotga aylantirishga imkon beradi. Xo'sh, mazkur hujjatni qabul qilishga qanday zarurat bor edi, nega aynan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda? Qarorning asl maqsadi va mazmun-mohiyati nimalardan iborat o'zi? Keyingi yillarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznesning ushbu shakli bilan shug'ullanayotganlarga ko'plab imtiyoz hamda imkoniyatlarni yaratib berish maqsadida barcha kuch safarbar etildi. Soliqdan ozod etish bo'ladimi, energiya resurslari to'lovidagi imtiyozlarmi, mahsulotni sotishdagi erkinlikmi, xullas, hamma sharoitlar bugun muhayyo.

Ana shu berilgan imkoniyatlar natijasida bajarilgan ishlar samarasi o'laroq, hozirgi kunda respublikamizda 13 ming 248 ta oilaviy korxona faoliyat olib boryapti. Ularda 22 ming 579 nafar odam ish bilan ta'minlangan. 2017 yilning o'zida oilaviy korxonalar tomonidan 379 milliard 399 million so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Joriy yilning birinchi choragida oilaviy tadbirkorlar tomonidan salkam 6 milliard 579 million so'm soliq to'langan [4].

Davlatimiz rahbari mazkur vazifaning yechimini aniq ko'rsatib berish bilan birga uning zarur shart-sharoitlar yaratishiga alohida to'xtalib o'tgan. Vaholanki ilg'or Yevropa mamlakatlarida o'zini o'zi band qilishni qo'llab quvvatlash bo'yicha ilk dasturlar 1970-1980 yillarda paydo bo'ldi va ular aholining xususiy korxona ochishlaridan iborat bo'ldi”[5-20]. Qarorga asosan, mamlakatimizning har bir tuman va boshqa hududlarida shu nomdagi dastur amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun tuman (shahar) hokimlarining birinchi o'rinbosarlari rahbarligida hududiy ishchi guruhlar tashkil etiladi. Ular har bir xonadonni o'rganib, aholining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishida biznes-reja tuzishdan to mahsulot ishlab chiqarish va sotishgacha bo'lgan jarayonda yordam ko'rsatadi. Qarorda fermer xo'jaliklari va xususiy tomorqa er egalari qo'llab-quvvatlash, bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshidagi jamoat tashkilotlarining dasturni moliyalashtirishi belgilangan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi esa kreditlarga kafilliklar va foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar ajratadi.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatini rivojlanishi quyidagicha tasniflanadi:

1. Yosh tadbirkorlar ish o'rinlarini yaratish va kengaytirishga e'tibor qaratishlari, qonuniy va ijtimoiy mas'uliyatli faoliyat yuritishlari lozim.

2. Davlat va nodavlat sektordagi yosh xodimlarning iqtisodiy madaniyati yangicha shakllanishi kerak.

3. "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi doirasida kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiy madaniyati shakllanishi, bunda tadbirkor va davlat ehtiyojlari muvozanati ta'minlanishi lozim.

4. Marginal[6] ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy madaniyati. Bu guruh ko'proq tashqi migratsiyani afzal ko'radi va topgan mablag'larini asosan iste'molga sarflaydi, ishlab chiqarishga yo'naltirmaydi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy madaniyat iqtisodiy hayot sifatining asosiy ko'rsatkichidir. Yoshlarning iqtisodiy faolligi qonunlarga munosabat, shaffoflik, islohotlardan xabardorlik, hamkorlik, barqarorlik, erkin fikrlash va raqobat muhiti kabi omillar bilan o'lchanadi. Yoshlar orasidagi tushkunlik kayfiyatini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashning kuchayishi yoshlarning iqtisodiy faolligini oshiradi. Yoshlarga berilayotgan imtiyozlar kengaymoqda, ularning iqtisodiy va moliyaviy erkinlikka intilishi kuchaymoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston", 2016. – B. 14.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 3.72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2017 yil 19 sentyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>.
3. Тоффлер Э. Метаморфозы власти = Powershift: Knowledge, Wealth and Violence at the Edge of the 21st Century, 1990. Москва.: АСТ, 2004. (Philosophy). - С.120.
4. <http://xs.uz/uzkr/post/har-bir-oila-tadbirkoruning-huquqij-asosi-mustahkam-imtiyozlar-kolami-keng>
5. Бозор, пул ва кредит. Ойлик илмий-амалий журнал. № 11. -Тошкент, 2020. -Б. 20.
6. Лот. marginalis - аросатдаги маданият.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).